

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASI

MIRABDULLAYEVA SHOIRAXON ABDULXAYEVNA

**OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA LIDERLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Mirabdullayeva Shoiraxon Abdulxayevna

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....

Мирабдуллаева Шоирахон Абдулхаевна

Психологические особенности развитие лидерских качеств курсантов высших военнообразовательных учреждений.....

Mirabdullaeva Shoiraxon Abdulxayevna

Improving psychological feature of higher military education cadets leadership competences.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASI

MIRABDULLAYEVA SHOIRAXON ABDULXAYEVNA

**OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA LIDERLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P1081 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karshiyeva Dilafuz Suyunovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Norqulova Nargiza Toshpulatovna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida bo'lajak ofiserlarning liderlik xususiyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. YUNISEFning 2024-2025-yillarga mo'ljallangan ta'lim monitoringida keltirilgan «liderlik sifatli - ta'lim mahsulidir»¹ g'oyasiga ko'ra xalqaro miqyosda harbiylarning liderlik sifatlarini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda va mazkur muammoni ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida bo'lajak ofiserlarning xalqaro standartlar asosida kasbiy kompetentligi, liderlik sifatlarini rivojlantirish, ularda strategik mobillik, harbiy vatanparvarlik, millatlararo bag'rikenglik, tolerantlik tafakkurini hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada globallashtirish jarayonlari sharoitida harbiy soha uchun fidoiy, yetakchi, tashabbuskor, innovatsion g'oyalarga boy, yangicha boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan lider kadrlarga bo'lgan talab dolzarbligi yanada ortadi. Aynan jangovar bo'linmani mohirona boshqaradigan, o'ziga ishongan, nostandart va mustaqil fikrga ega, harbiy faoliyat xizmatchisida liderlik sifatlarini tarkib toptirish orqali uning harbiy qiyofasini shakllantirish muammosining dolzarbligi yanada ortadi va alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash, ularning bilim va iste'dodlarini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari aniqlanib, zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...har bir askar va serjantda, ofiser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy psixologik tayyorgarligini mustahkamlash Qurolli Kuchlar rahbariyati ruh va g'urur kuchli bo'lishi kerak. Milliy ruh – bu yengilmas kuchdir»², «...oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish», «...Mudofaa vazirligi qo'shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish»³ ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda milliy armiyaning boshqaruv korpusi bo'lgan

¹ Лидерство в образовании | Global Education Monitoring Report <https://www.unesco.org/gem-report/ru/leadership>

² O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning Xafvsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi harbiy xizmatchilarga murojaati. Gazeta.uz. 2024-yil, 13-yanvar.

³ O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning Xafvsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi harbiy xizmatchilarga murojaati Gazeta.uz. 2024-yil, 13-yanvar.

ofiserlarda liderlik sifatlarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan, mazkur mavzuni tadqiq etish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, jamiyat psixologik osoyishtaligini saqlash orqali uning ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi, mazkur muammoni ilmiy-amaliy tadqiq etish uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmonlari, 2019-yil 12-sentyabrdagi PQ-4447-son «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmat o'tash tartibidagi nizomini tasdiqlash haqida», 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi, Qurolli Kuchlarning Axloqiy-ruhiy ta'minot Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019-yil 12-martdagi 202-son «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha qo'llanmani tasdiqlash to'g'risida», 2019-yil 18-avgustdagi 797-son «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida psixologik ishlarni tashkil etish nizomini tasdiqlash to'g'risida»gi buyruqlar hamda mazkur soha faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan V.M.Karimova, I.I.Mahmudov, D.G.Muxamedova, A.A.Nurullayev, A.I.Rasulov, L.U.Ravshanov, R.S.Samarov, E.G'.G'oziyev, J.R.Shukurov va boshqalar harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik jihatlarini tadqiq etish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakarlari olimlaridan S.A.Alifanov, A.Ya.Ansupov, E.G.Bern, T.V.Bendas, A.B.Barabanmikov, A.D.Glotochkin, A.V.Yevseyev, B.G.Kretov, R.V.Kishikov, V.M.Kruka, L.G.Laptev, G.S.Nikifirov, V.F.Perevalova va boshqalar tomonidan harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik jihatleri muammosi ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan L.E.Atvater, E.K.Boven, D.R.Vinter, G.B.Greyen, Ed.Kur, M.B.Mankuzo, R.B.Frank, A.S.Filips, M.M.Xemers, Ye.S.Xollander va boshqalar tomonidan harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining

psixologik ayrim jihatlari ilmiy tadqiq etilgan. Biroq, harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar maxsus tadqiqot obyektli sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida harbiy-ilmiy tadqiqotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 12-mart kunidagi 207-sonli buyrug'i 1-ilovasi hamda «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida uzoq, o'rta va yaqin istiqbolda harbiy-ilmiy tadqiqotlar olib borishning asosiy mavzulari va ustuvor yo'nalishlari» bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan (2022-2026-y.y.).

Tadqiqotning maqsadi oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlarini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida uni rivojlantirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kursantlarda liderlik sifatlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlash;

kursantlarda liderlikning namoyon bo'lishi va rivojlanishiga shaxs xususiyatlarining ta'sirini ilmiy-amaliy tadqiq etish;

kursantlardagi liderlik sifatlarini namoyon bo'lishi va rivojlanishining emosional intellekt bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etish;

kursantlarda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturi va zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektli sifatida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini tadqiq etish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining chegara qo'shinlari, qo'shin razvedkasi, harbiy psixolog taktik qo'mondonligi bo'yicha tahsil olayotgan 1-bosqich kursantlarining 64 nafari, 3-bosqich kursantlarining 58 nafari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy Aviasiya institutida harbiy havo kuchlari taktik qo'mondonligi - havo harakatini boshqarish (dispatcher-muhandis) yo'nalishida tahsil olayotgan 1-bosqich kursantlaridan 34 nafar, 3-bosqich kursantlaridan 22 nafar, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Akademiyasida xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash, tezkor-qidiruv faoliyati bo'yicha tahsil olayotgan 1-bosqich kursantlaridan 32 nafar, 3-bosqich kursantlaridan 48 nafar, jami 258 nafar kursantlar tadqiqotga respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda Ye.Jarikov, Ye.Krushelniskiylarning «Liderlik qobiliyati diagnostikasi», I.D.Ladanov, V.A.Urazayevalarning «Shaxslararo kommunikasiyaga yo'nalganlik motivasiyasi tashhisi», S.Xollning «Emosional intellektni aniqlash» metodikasi, R.B.Kettellning «16-faktorli shaxs so'rovnomasi», mualliflik ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchligini tasdiqlash uchun Kolmogorov-Smirnov mezonidan, o'zaro bog'liq bo'lmagan tanlamalar orasidagi farqning ahamiyatlilik darajasini aniqlashda

Mann-Uitni U-mezone, Uilkokson W hamda Kruskal-Uollis H-mezonlaridan, Spirman noparametrik mezonlarini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kursantlarda liderlik sifatlarining namoyon bo'lishiga ijtimoiy psixologik xususiyatlarning ta'siri natijasida shaxslararo kommunikasiya motivlaridan suxbatdoshni idrok qilish va tushunishdagi adekvatlikka va suxbatdoshni qabul qilishga yo'nalganlikning kurslar kesimidagi differensiasiyasiga bog'liq holda ijtimoiy (guruhni birlashtirish, muloqotchan, hammaga birdek munosabatda bo'lish) va irodaviy (aqli, tashabbuskor, mustaqil qaror qabul qilish) xususiyatlarning usutuvor harkterga ega ekanligi dalillangan;

kursantlarda liderlikning namoyon bo'lishiga shaxs fazilatlarini ta'siriga ko'ra shaxsning guruhda muloqotga kirishish san'ati, shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyasi va ta'sir darajasi hamda o'zaro munosabatlarda fikrlash doirasi, aqliy qobiliyatlari, dunyoqarashi, zukkoligi, verbal madaniyati va erudisiya darajasini harbiy ta'limda kuchli ifodalanishi tufayli kommunikativ va intellektual xususiyatlarning ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlangan;

kursantlardagi liderlik sifatlarini namoyon bo'lishiga emosional intellektning ta'siriga ko'ra o'zgalarning va shaxsning o'z kechinmalariga nisbatan sezgirligi, ijtimoiy kechinmalari guruhiy munosabatlarni barqarorlashtirganligi tufayli hissiy bilimdonlik va empatiya ustuvor komponent ekanligi dalillangan;

harbiy jamoalarda mustahkam harbiy intizomni saqlash va yakkaboshchilik tamoyilini tashkillashtirish uchun lider harbiy xizmatchilar kasbiy-shaxsiy tuzilmasiga ijtimoiy intellekt, kasbiy bilimdonlik, innovation yaratuvchanlik, mas'uliyatlilik va nostandart vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi psixologik komponentlarni singdirish asosida «Zamonaviy lider harbiy xizmatchining psixologik qiyofasi»ni tavsiflash takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kursantlarda liderlik sifatleri shakllanishining ijobiy va salbiy psixologik xususiyatlarini baholash mezonleri shakllantirilgan;

kursantlarda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga kiritilgan;

kursantlarda liderlik sifatlarini aniqlashning uslubiy ta'minotini oliy harbiy ta'lim muassalarida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilib, aprobatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik jihatlarini xalqaro miqyosda o'zining ishonchli ekanini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to'plangani, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilgani, tadqiqot obyektleri sifatida turli hududlardagi harbiy qismlar tanlanganligi, sinalluvchilar guruhining reprezentativligi, olingan empirik qiymatlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kursantlarda liderlik sifatlarini rivojlantirishning konseptual asoslari

yoritib berilgan, liderlik sifatleri shakllanishining ijtimoiy-psixologik va pedagogik shartlari aniqlangan, harbiy bo‘linma liderining kasbiy, ijtimoiy-psixologik, ijodiy va shaxsiy sifatlariga ega bo‘lgan, bo‘linma faoliyat yuritishi, natijalarga erishishi, ofiser shaxsiga qo‘yiladigan adekvat, kompleks talablarga javob bera oladigan mutaxassis modeli ishlab chiqilgan, kursantlarda liderlik sifatleri rivojlanishining asosiy qonuniyatlari aniqlangan va OHTM dagi ta‘lim jarayonida lider kursantlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta‘lim muassasalari va oliy harbiy bilim yurtlarida «Umumiy psixologiya», «Harbiy psixologiya», «Boshqaruv psixologiyasi», «Shaxs psixologiyasi», «Psixodiagnostika» fanlarini yangi ilmiy manbalar bilan boyitishda va harbiy psixologlar malakasini oshirishda shuningdek, harbiy xizmatchilarni vatanparvalik ruhida tarbiyalashda, shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy holatini aniqlashda, nomzodlarni harbiy kasbga saralash va yo‘llashda, harbiy kadrlarni lavozimlarga qo‘yishda, harbiy xizmatchilarning ijobiy psixologik omillarini aniqlashda hamda mudofaa faoliyatini takomillashtiriga qaratilgan kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy harbiy ta‘lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlerini namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari bo‘yicha dissertatsion tadqiqoti natijalari asosida:

kursantlarda liderlik sifatlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga etnopsixologik xususiyatlarning ta‘siri natijasida shaxslararo kommunikasiya motivlaridan suxbatdoshni idrok qilish va tushunishdagi adekvatlikka va suxbatdoshni qabul qilishga yo‘nalganlikning kurslar kesimidagi differensiasiyasiga bog‘liq holda o‘zbek millati vakillarida ijtimoiy (guruhni birlashtirish, muloqotchan, hammaga birdek munosabatda bo‘lish), rus millati vakillarida esa irodaviy (aqlli, tashabbuskor, mustaqil qaror qabul qilish) xususiyatlar usutuvor harkterga ega ekanligi dalillangan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-346 son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-346 son ma‘lumotnomasi). Natijada kursantlarda liderlik sifatlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlashtirish imkoniyati yaratilgan;

kursantlarda liderlikning namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga shaxs fazilatlarini ta‘siriga ko‘ra shaxsning guruhda muloqotga kirishish san‘ati, shaxslararo munosabatlardagi pozisiyasi va ta‘sir darajasi hamda o‘zaro munosabatlarda fikrlash doirasi, aqliy qobiliyatlari, dunyoqarashi, zukkoligi, verbal madaniyati va erudisiya darajasini harbiy ta‘limda kuchli ifodalanishi tufayli kommunikativ va intellektual xususiyatlarning ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlangan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-346 son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-346 son ma‘lumotnomasi). Natijada kursantlarda liderlikning namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga shaxs xususiyatlarining ta‘siri ochib berilgan;

kursantlardagi liderlik sifatlarini namoyon bo'lishi va rivojlanishiga emosional intellektning ta'siriga ko'ra o'zgalarning va shaxsning o'z kechinmalariga nisbatan sezgirligi, ijtimoiy kechinmalari guruhiiy munosabatlarni barqarorlashtirganligi tufayli hissiy bilimdonlik va empatiya ustuvor komponent ekanligi dalillangan takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-346 son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-346 son ma'lumotnomasi). Natijada kursantlardagi liderlik sifatlarini namoyon bo'lishi va rivojlanishining emosional intellekt bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

harbiy jamoalarda mustahkam harbiy intizomni saqlash va yakkaboshchilik tamoyilini tashkillashtirish uchun lider harbiy xizmatchilar kasbiy-shaxsiy tuzilmasiga ijtimoiy intellekt, kasbiy bilimdonlik, innovasion yaratuvchanlik, mas'uliyatlilik va nostandart vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi psixologik komponentlarni singdirish asosida «Zamonaviy lider harbiy xizmatchining psixologik qiyofasi»ni tavsiflash takomillashtirilgan takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-346 son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-maydagi PM-346 son ma'lumotnomasi). Natijada kursantlarda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 ta maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining PhD dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, 2 ta xalqaro OAK jurnallarida, 3 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika konferensiyalarida nashr etilgan.


Dissertasiyaning tuzilishi. Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida liderlik fenomenining ijtimoiy-psixologik jihatlari, lider shaxsining o'ziga xos tomonlari, Sharq allomalarining lider va unga qo'yiladigan talablar borasidagi fikrlari, liderlik nazariyalari va guruhdagi dinamik jarayonda liderlarning yuzaga kelish qonuniyatlari, harbiy ta'limning o'ziga xos tomonlari, kursantlarda liderlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan.


Dissertatsiyaning «**Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida liderlik sifatlarini empirik o'rganilganligi**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan. Kursantlarning liderlik sifatlarini rivojlanishiga va namoyon bo'lishiga albatta ijtimoiy psixologik omillarning ta'siri kattadir. Shu boisdan, biz dastlab kursantlar orasida ijtimoiy-psixologik so'rovnoma o'tkazib oldik. Mazkur so'rovnomaning birinchi qismida respondentlarning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari aniqlangan bo'lsa, ikkinchi qismida oila, guruhiy munosabatlarning liderlik sifatlariga ta'siri o'rganildi.



1-rasm. Kursantlarning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari

1-rasmdan ko'rinadiki, kursantlarning 164 nafari o'zbek, 94 nafari rus millatiga mansub bo'lib, ulardan 135 nafari harbiy oilalarda voyaga yetgan. Shunda, 54% o'zbek, 48,9% rus millatiga mansub kursantlarning ota-onalarining har ikkisi yoki bir nafari harbiy bo'lib, harbiy karyerani oilaviy an'ana sifatida davom ettirmoqdalar. Bu toifa kursantlar uchun harbiy sharoit va uning o'ziga xos ekstremal holatlari yaxshi tanish bo'lib, ongli ravishda ushbu kasbni tanlaganlaridan dalolat beradi. Kursantlarning 123 nafari harbiy bo'lmagan oila farzandlari hisoblanadi. Shundan, 45,7%ini o'zbeklar, 51,1%ini ruslar tashkil etadi. Mazkur kursantlar harbiy bo'lmagan oila vakillari bo'lib, ularning mazkur sohadagi faoliyatga psixologik tayyorligi yuqoriligi yaqqol kuzatilgan.


Navbatdagi bosqichda, kursantlarda liderlik sifatlarini namoyon bo'lishiga guruhning ta'sirini aniqlab oldik. Buning uchun kursantlarning lider haqidagi ijtimoiy tasavvurlari "Lider qanday bo'lishi kerak?" degan savoli orqali kursantlarning fikrlari aniqlashtirib olindi, natijalar 2-rasmda berilgan.



2-rasm. Kursantlarning lider haqidagi tasavvurlari

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek millatiga mansub kursantlarning 67%i uchun guruhni birlashtira oladigan, o‘z ortidan ergashtira oladigan shaxs liderdir. Rus millati vakillarining 61,9%i uchun kreativ fikrlaydigan shaxslar liderdir. O‘zbek millatiga mansub kursantlari uchun liderlik sifatleri orasida muloqotchanlik (62,3%), hammaga birdek munosabat qiladigan (59,9%), tashabbuskorlik (56,0%), mas’uliyatlilik (54,0%) yetakchilik qilgan. Mazkur holat o‘zbek millatiga mansub kursantlar uchun shaxslararo munosabatlarda emosional iliqlik yarata olgan kishilargina haqiqiy lider hisoblanadilar. Agar natijalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, aqllilik (34,6%) va mustaqil qaror qabul qilish (43,4%) sifatlarida aniqlangan. Mazkur holat, kursantlarda aqlan ustun bo‘lgan shaxslardan ko‘ra, do‘stona mkunosabat o‘rnata oladigan, ijtimoiy intellekti yuqori bo‘lgan shaxslar jamoani boshqarishini istashlarini anglatadi. Rus millati vakillarida esa bir oz boshqacharoq holat kuzatilgan. Rus millatiga mansub kursantlarning natijalarida aqllilikdan keyin tashabbuskorlik (61,8%), mustaqil qaror qabul qila olish (58,9%), muloqotchanlik (56,7%), mas’uliyatlilik (56,2%), topqir, vaziyatdan chiroyli chiqishni biladigan (51,4%) shaxs xususiyatlari ustuvor qiymatga ega bo‘lgan. Mazkur holat rus millatiga mansub kursantlar liderni ko‘proq funksional va intellektual sifatleri orqali guruhni boshqarishini ma’qul ko‘rishlarini anglatadi. Eng kam ko‘rsatkich sifatida 23,5% rus millatiga mansub kursantlar “hammaga birdek munosabatda bo‘ladigan” shaxsni lider deb baholaganlarining o‘ziyoq ular uchun ijtimoiy munosabatlardagi intellektualizmning yuqori bo‘lishi muhimligini anglatadi. Yuqoridagilarga asoslanib aytishimiz mumkinki, kursantlarning lider haqidagi ijtimoiy tasavvurlarida etnik tafovutlarning mavjudligi ularda liderlik sifatini rivojlanishiga o‘ziga xos tarzda ta’sir etadi.

Navbatdagi bosqichda kursantlarning guruhiy munosabatlarini liderlik sifatini namoyon bo‘lishiga ta’sirini aniqlash uchun “Guruhiy munosabatlardan qoniqasizmi?”, “Siz guruhingizdagi lider va guruh munosabatlarini qanday baholaysiz?”, “O‘zingizdagi liderlik sifatlarini rivojlanganligini qay darajada baholaysiz?” degan savollarga javoblar olindi, natijalar 3-rasmda berilgan.



3-rasm. Kursantlardagi liderlik sifatlarini namoyon bo'lishiga guruhiiy munosabatlarning ta'siri

3-rasmdan ko'rinadi, 89,5% kursantlarni guruhdagi ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar tizimi qoniqtiradi. Mazkur holat guruhdagi iliq psixologik muhitdan dalolat beradi. 10,5% kursantlarni guruhdagi munosabatlar qoniqtirmasligini sababi ijtimoiy moslashuvdagi muammolar bilan bog'liqdir. Ma'lumki, harbiy muhit kursantlardan psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Qat'iy intizom esa ularning shaxslararo munosabatlari tizimini konstruktiv qurishlariga psixologik to'siq vazifasini bajarsa kursantlarning guruhga integrasiyasi qiyinlashadi. Bu holatda kursant guruhdagi o'zaro munosabatlar tizimini qanday baholashi muhim. Kursantlarning 47,3%i guruhdagi "lider va guruh munosabatlarini" emosional iliq, do'stona deb baholagan bo'lsalar, 35,7%i harbiy-taktik harakterda, 17%i rasmiy deb baholaganlar. Natijalardan ko'rinadiki, 17% kursantlar o'zaro munosabatlarni rasmiy munosabat sifatida baholashadi, bu ularning guruhga mosshishini qiyinlashtiruvchi omil sifatida yuzaga chiqib, guruhiy munosabatlardan qoniqmasligiga olib kelishi mumkin. Qolgan holatlarda esa kursantlar guruhda samimiylik mavjudligini bildirganlar. Kursantlarning 50,8%i o'zlarida liderlik sifatleri rivojlangan deb baholaganlar. Mazkur holat ularning guruhdagi o'zaro munosabatlarda tan olinganliklarini, o'z fikrlari va tashabbuslariga egaliklarini anglatadi. 16,3% kursantlar esa o'zlarida liderlik sifatini qoniqarsiz rivojlangan deb baholaganlar. Mazkur holat ularning o'zlariga beradigan baholarining pastligi bilan ham bog'liqdir.

Tadqiqot vazifasidan kelib chiqib, kursantlardagi liderlik sifatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun Ye.Jarikov, Ye.Krushelniskiyning "Liderlik qobiliyati diagnostikasi" so'rovnomasidan foydalanildi, natijalar 1-jadvalda berilgan.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, liderlik qobiliyatini namoyon bo'lishining millat bilan bog'liq ($U=5928,50$; $p \leq 0,01$) etnopsixologik omillarida ahamiyatli farqlar kuzatilgan. Mazkur holatda o'zbek millati vakillari bo'lgan kursantlarning natijalari balandroq chiqqan. Bu esa o'zbek millati harbiy oliy ta'lim muassasalarida ko'p kontengentni tashkil qilishi bilan bir qatorda, o'zbek millati o'z

farzandlarini o'ziga ishongan, jasur va odamlarni ortidan ergashtira oladigan qilib tarbiyalashlari bilan bog'liq.

1-jadval

Kursantlardagi liderlik qobiliyatining etnopsixologik xususiyatlari (n=258)

Liderlik qobiliyatining etnik jihatlari	N	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U	p
O'zbek	164	140,35	23017,50	5928,500**	0,002
Rus	94	110,57	10393,50		
Harbiy oila	135	136,13	18378,00	7407,000	0,132
Harbiy bo'lmagan oila	123	122,22	15033,00		

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Natijalaran ko'rinadiki, kursantlar voyaga yetgan harbiy yoki harbiy bo'lmashligi ularning liderlik sifatlarini namoyon bo'lishiga ta'sir qilmasligi aniqlangan. Bu esa har qanday o'zbek oilasida o'g'il bola tarbiyasida kuchli, aqlli, tashabbuskor, ijtimoiy dadil, mas'uliyatli liderlarni tarbiyalashga e'tibor qaratilishini anglatadi.

Shaxslararo kommunikasiyada axborot, hissiyot almashinishga, bir-birini tushunishga va tushunilishga bo'lgan ehtiyojimizni qondirish bilan bir qatorda odamlarga ta'sir etish, ularni ichki olamiga kirib borishga urinadi. Bu esa shaxsda individual interaktiv ta'sir usullarini o'ylab topishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, muloqotga kreativ yondashishni talab etadi. Mazkur holatlar esa shaxsdan liderlik sifatlarini yorqin ifodalanishini talab etadi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, kursantlarda Ye.Jarikov, Ye.Krushelniskiyning "Liderlik qobiliyati diagnostikasi" so'rovnomasidan olingan natijalarni I.D.Ladanov, V.A.Urazayevalarning "Shaxslararo kommunikasiyaga yo'nalganlik motivasiyasi tashhisi" so'rovnomasidan olingan natijalar bilan o'zaro bog'liqligini kurslar kesimida tahlil qilindi, natijalar 2- jadvalda berilgan.

2-jadval

Kursantlarda liderlik sifatlari namoyon bo'lishiga shaxslararo kommunikasiyaga yo'nalganlik motivasiyasining ta'siri (n=258)

Mezonlar	Kurslar	Suxbatdoshni qabul qilishga yo'nalganlik	Suxbatdoshni idrok qilish va tushunishdagi adekvatlikka yo'nalganlik	Kompromissga yo'nalganlik
Liderlik sifatlari	1-kurs (n=130)	-0,127	0,234**	0,335**
	3-kurs (n=128)	0,269**	-0,166	-0,190*

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

2-jadvaldan ko'rinadiki, suxbatdoshni qabul qilishga yo'nalganlik 3-bosqich kursantlarida liderlik sifatlari ($r_s=0,269$; $p \leq 0,01$) bilan ahamiyatli musbat bog'lanishlarga ega. Aslida suxbatdoshini qabul qilish uni boricha subyekt sifatida, harakteri, qobiliyati, dunyoqarashi, qadriyatlarini, hatti-harakatlari bilan qabul qilishni o'z ichiga oladi. 3-bosqich kursantlari guruhiy munosabatlardan suxbatdoshni qabul qilishga intilar ekan, uni shaxsini qadrlaydi. Bu esa bevosita o'zaro munosabatlardagi

“tushunarsiz, noaniq holat”larni kamaytirib, ijtimoiy almashinishga, ya’ni bir-birini tan olishga, hurmat qilishga, o‘zaro ta’sirlashuvga olib keladi. Natijada kursantlarda suxbatdoshning individual xususiyatlarini tan olish va qabul qilish jarayoni kuchayadi. Bu esa shaxsning guruhiiy munosabatlarda liderlik sifatlarini namoyon qilishiga, o‘z ustida ishlab, liderlik sifatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Suxbatdoshni idrok qilish va tushunishdagi adekvatlikka yo‘nalganlik 1-bosqich kursantlarining liderlik sifatleri ($r_s=0,234$; $p\leq 0,01$) bilan ahamiyatli musbat bog‘lanishga ega bo‘lgan. Biz bilamizki, muloqotda suxbatdoshni idrok qilish uning tashqi ko‘rinishi, muloqotdagi ma’lumotlari va noverbal signallari orqali amalga oshiriladi. Kursantlar orasida kechayotgan harbiy ta’limga moslashish va kursdoshlarga “o‘rganish” (chunki, ular 24 soat kursdoshlari bilan birga bo‘ladilar) jarayonida suxbatdoshni idrok qilish dastlab ularning tashqi ko‘rinishi qarab amalga oshiriladi. Ta’limning dastlabki kunlarida kursantlar o‘z safdoshlarining holatini ularning tashqi ko‘rinishi va noverbal signallari orqali idrok etishga bor “kuchlarini safarbar” etadilar. Bu orqali kursantlar avvalo guruhga ijtimoiylashishga liderlik sifatlarini namoyon qilishga urinsalar, ikkinchidan do‘stlashishga, emosional qadriyatlar asosida munosabat o‘rnatishga urinadilar. Aytish joizki, muloqotdagi ijtimoiy persepsiya mexanizmining faollashuvi kursantlarning guruhga moslashuvini kuchaytirish bilan birga, ularning kommunikativ motivlarini qondirilishiga olib keladi. Bu esa kursantlarning o‘z salohiyati va qobiliyatini guruhda to‘liq namoyon etishiga sabab bo‘ladi. Shu jumladan, muloqotda suxbatdoshni idrok etishga va uni tushunishga, adekvat baholashga yo‘nalgan shaxsda liderlik sifatleri ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Guruhiiy munosabatlarda kompromissga yo‘nalganlik 1-bosqich kursantlarida liderlik sifatleri bilan ($r_s=0,335$; $p\leq 0,01$) ahamiyatli musbat, 3-bosqich kursantlarida esa ($r_s=-0,190$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli manfiy bog‘lanishga ega bo‘lgan. 1-bosqich kursantlarida guruhiiy munosabatlarga moslashish uchun, guruhda o‘z ijtimoiy mavqeyini tan olinishiga erishish uchun o‘zaro muloqotda kompromissga yo‘nalganlikning kuchli ifodalanishi kuzatilgan. Kursantlar o‘zaro munosabatlardagi zididiyatlarda umumiy yechim topishga urinish orqali spontan vaziyatlardagi nostandart yechimlari bilan liderlikka erishishga urinadilar. Shu boisdan, 1-kurslarda kompromiss liderlikka undab, ijobiy harakterga egadir. 3-bosqichga kelib esa kursantlardagi liderlik sifatleri kompromissga yo‘nalganlik bilan teskari bog‘lanishga ega bo‘lgan. Buning asosiy sababi, kursantlarning o‘z qarashlarida sobitligi, nizoli vaziyatlarda o‘z qarashlarini himoya qilishga urinishlari orqali liderliklarini namoyon qilishlarini anglatadi.

Kursantlarda liderlik qobiliyatini namoyon bo‘lishiga shaxs xususiyatlarining ta’sirini aniqlash maqsadida R.B.Kettellning “16-faktorli shaxs so‘rovnomasi”ni qo‘lladik.

3-jadvalda berilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, kommunikativ xususiyatlar 1-bosqichda ($r_s=0,450$; $p\leq 0,01$) va 3-bosqichda ($r_s=0,531$; $p\leq 0,01$) liderlik sifatleri bilan ahamiyatli mustab bog‘lanishga ega bo‘lgan. Kommunikativ xususiyatlar muloqotchanlik, dadillik, hukmronlik, shubhalanuvchanlik, diplomatiklik, mustaqillik sifatlarining majmuasidan iborat bo‘lib, shaxsning lider sifatida tan olinishida muhim o‘ringa ega. Kommunikativ xususiyatlar shaxsning guruhda

muloqotga kirishish san'ati, shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyasi va ta'sir darajasini aniqlashtirib beradi hamda liderlik sifatlarini namoyon bo'lishiga olib keladi.

3-jadval

Kursantlarda liderlik sifatleri namoyon bo'lishiga shaxs xususiyatlarining ta'siri (n=258)

Mezonlar	Kurslar	Kommunikativ xususiyatlar	Intellektual xususiyatlar	Irodaviy xususiyatlar	Emosional xususiyatlar
Liderlik sifatleri	1-kurs (n=130)	0,450**	0,185*	0,117	0,010
	3-kurs (n=128)	0,531**	0,248**	0,134	0,203*

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Tadqiqotning navbatdagi mezoni intellektual xususiyat bo'lib, 1-bosqich ($r_s=0,185$; $p \leq 0,05$) va 3-bosqich ($r_s=0,248$; $p \leq 0,01$) kursantlaridagi liderlik sifatleri bilan ahamiyatli musbat bog'lanishga ega bo'lgan. Intellektual xususiyatlar intellektuallik, orzu qilish, yangilikka nisbatan ta'sirchanlik (yangilikka intiluvchanlik) sifatlarining majmuasidan iborat bo'lib, shaxsning lider sifatida tan olinishida muhim o'ringa ega. Intellektual xususiyatlar shaxsning o'zaro munosabatlarda fikrlash doirasi, aqliy qobiliyatlari, dunyoqarashi, zukkoligi, verbal madaniyati va eruditsiyasi darajasini ko'rsatib beradi. Shaxsdagi intellektual xususiyatlar vaziyatni to'g'ri baholashga va shu asosda guruhda liderlik qobiliyatini namoyon qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Kursantlarining intellektual xususiyatlari liderlik sifatlarini ichki determinanti bo'lib xizmat qilmoqda. Guruhiy munosabatlarda va safdoshlari bilan muloqotda liderlik sifatlarini namoyon bo'lishida aynan rasional qabul qilingan qarorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan intellektual xususiyatlar va liderlik sifatleri orasida ahamiyatli bog'lanishlar aniqlangan.

Qo'llanilgan psixodiagnostik metodikaning ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lgan navbatdagi shkalasi emosional xususiyatlari bo'lib, u 3-bosqich kursantlarining liderlik sifatleri ($r_s=0,203$; $p \leq 0,05$) bilan musbat korrelyasiyaga ega bo'lgan. Emosional xususiyatlar emosional barqarorlik, beparvolik, ijtimoiy munosabatlardagi dadillik, emosional ta'sirchanlik, xavotirlanuvchanlik, zo'riqish sifatlarining majmuasidan iborat bo'lib, shaxsning lider sifatida tan olinishida muhim o'ringa ega. Emosional xususiyatlar shaxsning vaziyatga nisbatan barqaror yoki beqaror emosional reaksiyasi hisoblanadi. Olingan natijalarga muvofiq emosional barqarorlik va emosional ta'sirchanlik darajalari aksariyat kursantlarda o'rtacha qiymatga ega bo'lgan. Bu ularning o'z emosiogen ta'sirlarga sezgirlik darajasini ko'rsatib beradi. Bunday shaxslar har qanday vaziyatda o'zlari uchun qulay tarzda emosional barqarorlikni saqlaydilar. Kutilmagan tasodifiy ta'sirlar esa ularda qisqa muddatga xavotir hissining ortishiga sabab bo'ladi. 3-bosqich kursantlarida axborotlarning ko'pligi, kasbiy shakllanish, shaxslararo munosabatlardagi emosional barqarorlikni ta'minlab tura olish, stressga chidamlilik guruhni boshqarishni samaradorligigiga ta'sir etadi. Kursantlarda emosional yetuklikning shakllanishi bilan esa liderlik sifatleri ham rivojlanib boradi.

Oliy harbiy ta'lim kursantlarining Ye.Jarikov, Ye.Krushelniskiyning "Liderlik qobiliyati diagnostikasi" so'rovnomasidan olingan natijalarini S.Xollning "Emosional intellekt darajasini aniqlash" so'rovnomasidan olingan natijalar bilan bog'liqlik jihatlari aniqlandi.

4-jadval

Kursantlarda liderlik sifatlari namoyon bo'lishiga emosional intellektning ta'siri (n=258)

Mezonlar	Kurslar	Emosional bilimdonlik	O'z emosiyalarini boshqarish	O'zini o'zi undash, motivasiya berish	Empatiya	O'zgalar emosional holatini bilish
Liderlik sifatlari	1-kurs (n=130)	0,533**	0,031	0,202*	0,492**	0,072
	3-kurs (n=128)	0,392**	0,509**	-0,052	0,392**	-0,116

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

4-jadvaldan ko'rinadiki, emosional bilimdonlik 1-bosqichda ($r_s=0,533$; $p \leq 0,01$) va 3-bosqichda ($r_s=0,392$; $p \leq 0,01$) liderlik sifatlari bilan ahamiyatli musbat bog'lanishga ega bo'lgan. Mazkur holat kursantlar boshqalap bilan suhbatlashayotganda ulapning emosional holatlapini oldindan ko'pa olish imkoniyatiga ega ekanligini ko'psatgan. Emosional bilimdonlik aslida shaxsning o'z emosiyalarini tushunish, o'zgalarning kechinmalarini his qila olish va ularga hamdard bo'la olish, qolaversa, emosiyalarni samarali namoyon etish qobiliyati hisoblanadi. Kursantlarning har ikki guruhida emosional bilimdonlikning yuqori bo'lishi shaxslar orasidagi hamkorlikdagi faoliyatni kuchaytiradi va natijada turli emosiogen vaziyatlarda rasional xulqning yuzaga kelishiga olib keladi. Buning asosiy sababi kursantlar insonlardagi turli emosiyalar, hissiyotlarni tub mohiyatini tahlil qilib, tushuna boshlaydilar va reflektiv qobiliyat tufayli insonlarning asl holatini tushunadilar. Kursantlarning aynan shunday o'zgalarning emosiyalarini tushuna olish, ularni tahlil qilish qobiliyati guruhda ishlash, guruhga integrasiyalanish va liderlik sifatlarini kuchayishiga olib keladi. Shu boisdan, emosional bilimdonlik va liderlik sifatlari orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

